

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIMIDA KOLLABORATIV MADANIYAT: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUV VA KOMPETENSIYALAR

Badalova Gulira'no Mirolimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16811640>

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagogika oliy ta'limida kollaborativ madaniyatni shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini yoritadi. Hamkorlikka yo'naltirilgan o'qitish, kichik guruhlar, fasilitatorlik roli, o'zaro hurmat va mas'uliyat, kreativ hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi usullar tahlil qilinadi. Vygotskiyning yondashuvi asosida talabanning ijtimoiy-psixologik barqarorligi, motivatsiyasi va kompetensiyalarini kuchaytirish yo'llari asoslanadi; jamoaviy qaror va konstruktiv nizolar ko'rib chiqiladi. Natijada ta'lim jarayonining demokratlashuvi, tengdoshlar hamkorligi va kompetensiyalar mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: kollaborativ madaniyat; hamkorlikda o'qish; fasilitatorlik; kichik guruhlar; tanqidiy va kreativ fikrlash; yaqin rivojlanish zonasi.

КОЛЛАБОРАТИВНАЯ КУЛЬТУРА В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ТЕОРИЯ, МЕТОДИКА И РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ

Аннотация: Статья раскрывает теоретические и методические основы формирования коллаборативной культуры в педагогическом высшем образовании. Анализируются обучение, ориентированное на сотрудничество, работа в малых группах, фасилитационная роль преподавателя, уважение и ответственность, а также методы, развивающие креативное и критическое мышление. Опираясь на идею зоны ближайшего развития Л. С. Выготского, обосновываются пути укрепления мотивации, социально-психологической устойчивости и компетенций студентов; рассматриваются коллективное принятие решений и конструктивное разрешение конфликтов; подчеркивается демократизация образовательной среды.

Ключевые слова: коллаборативная культура; обучение в сотрудничестве; фасилитация; малые группы; критическое и креативное мышление; зона ближайшего развития.

COLLABORATIVE CULTURE IN TEACHER EDUCATION: THEORY, METHODS, AND COMPETENCY DEVELOPMENT

Abstract: The article elucidates the theoretical and methodological foundations of building a collaborative culture in teacher education. It examines cooperation-oriented instruction, small-group work, the teacher's facilitator role, mutual respect and responsibility, and techniques that foster creative and critical thinking. Drawing on Vygotsky's zone of proximal development, the paper outlines ways to strengthen students' motivation, socio-psychological resilience, and competencies; it discusses collective decision-making and constructive conflict management, arguing that democratizing the learning process and peer collaboration consolidate transferable skills.

Keywords: collaborative culture; cooperative learning; facilitation; small groups; critical and creative thinking; zone of proximal development.

Kollaborativ madaniyat bugungi oliy ta'lim tizimida talaba shaxsini kompleks

rivojlantirishning muhim omilidir. Hamkorlikka tayangan o'quv jarayoni talabalarda o'zaro hurmat, mas'uliyat, samarali muloqot, murosas, kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Bunda o'qituvchi ma'ruzachi emas, balki fasilitator sifatida guruh ishini yo'naltiradi, tengdoshlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni rag'batlantiradi. Kichik guruhli munozaralar, aqliy hujum, rollarni almashish, muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish singari usullar talabani ijtimoiy-psixologik barqarorligini mustahkamlaydi. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi yondashuvi asosida jamoaviy faoliyat bilimlarni chuqur o'zlashtirish, motivatsiyani oshirish va kompetensiyalarni amaliyotga ko'chirishga xizmat qiladi. Shuningdek, konstruktiv nizolarni boshqarish, qaror qabul qilishda barcha a'zolar hissasini e'tirof etish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash jihatlar ta'lim muhitini demokratlashtiradi.

Jahonda oliy ta'lim tizimi jadal o'zgarayotgan bir vaqtda, talabalarning hamkorlikda ishlash madaniyatini rivojlantirish ta'lim strategiyalarining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, kollaborativ madaniyat - ya'ni jamoaviy fikrlash, qaror qabul qilishda ishtirok etish, o'zaro hurmat va mas'uliyat asosida muloqot qilish qobiliyatlari - zamonaviy pedagogik ta'lim standartlarining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Bu madaniyatni shakllantirish orqali talaba mustaqil fikrlovchi, jamoada ishlay oladigan, ijtimoiy-psixologik barqaror shaxs sifatida yetishadi. Pedagogik ta'lim jarayonida raqobat emas, balki hamkorlik tamoyillarini ilgari surish o'qituvchilik kasbining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini chuqur anglashga olib keladi. Ushbu dissertatsiya pedagogika oliy ta'limi sharoitida kollaborativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlab, uni metodik jihatdan ta'minlash, jamoaviy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv orqali rivojlantirish yo'llarini ilmiy asoslab beradi.

Kollaborativ madaniyat (hamkorlik madaniyati) – bu o'quv muhitida talabalarning birgalikda ishlashga moyil tamoyillari, o'zaro hurmat va jamoaviy mas'uliyat kabi qadriyatlar majmuasidir. Zamonaviy pedagogikada ta'lim jarayonini talaba faolligi va hamkorligiga asoslangan holda tashkil etish dolzarb masalaga aylandi [1. 2024:B.133]. Xususan, XXI asr kompetensiyalari tarkibida talabalar uchun kommunikativ va kollaborativ ko'nikmalar alohida ahamiyat kasb etmoqda [2. 2006:B.14]. Bugungi ta'lim sohasidagi global tendensiyalar ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablarni oshirdi – talabalarda mustaqil fikrlash bilan birga jamoa bo'lib muammoni hal etish qobiliyatini ham shakllantirish zarurati tug'ildi. Shu bois O'zbekistonda ham ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, interfaol va hamkorlikka asoslangan usullarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Kollaborativ madaniyatli ta'lim muhiti quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: talabalarning faol ishtiroki va hamma uchun ochiq munozara, g'oyalarni erkin ifoda qilish imkoniyati, barcha a'zolar hissasining qadrlanishi va o'zaro yordamga tayyorlik. Bunday muhitda o'qituvchi "ma'ruza o'quvchi" dan ko'ra ko'proq fasilitator (yo'llaguvchi) rolini bajaradi – ya'ni talabalar o'zlari yechim topishlari uchun yo'l ko'rsatib, muloqot va hamkorlikni rag'batlantiradi. Natijada, talabalarda bir-birining fikrini tinglash, o'z nuqtai nazarini himoya qila olish va jamoaviy qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar shakllanadi. Pedagogik tadqiqotlar tasdiqlashicha, barcha talabalarning dars jarayoniga jalb qilinishi ularning kooperativ va kollaborativ ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi, shuningdek, kichik guruhlardagi bahs-munozaralar mavzuga qiziqishni oshiradi. Talaba dars davomida yetakchi rolni bajarib ko'rish, tengdoshlaridan o'rganish va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'lsa, bu uning hamkorlik madaniyatini mustahkamlaydi. Demak, pedagogik nuqtai nazardan kollaborativ madaniyat – bu maxsus tashkiliy-pedagogik sharoit yaratilgandagina

rivojlanadigan sifat bo'lib, uning negizida ta'lim jarayonini demokratlashtirish, o'qituvchi va talaba hamkorligini ta'minlash yotadi.

Guruh ichida o'zaro ishonch va hurmat muhitining mavjudligi kollaborativ madaniyatning muhim ko'rsatkichi bo'lib, aynan ochiq va qo'llab-quvvatlovchi atmosfera talabalarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi. Bir guruh tadqiqotchilar hamkorlikka asoslangan o'qitish jarayonida "inson bilimlari ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali kengayadi, ijodiy faollik rag'batlantiriladi va ishonchli ta'lim muhiti shakllanadi[5. 2024:B.46]" deb ta'kidlaydilar.

Sotsiologiyada jamoa bo'lib o'qish jarayoni "kichik guruh dinamikasi" orqali tahlil qilinadi – unda guruhning har bir a'zosi muayyan rol ni bajaradi, liderlik, murosa qilish, nizolarni hal etish kabi jarayonlar kechadi. Kollaborativ madaniyat yuqori bo'lgan guruhlarda yetakchilik va mas'uliyat barcha a'zolar orasida taqsimlanadi, ya'ni har bir talaba nafaqat o'z natijasi, balki butun guruh muvaffaqiyati uchun ham mas'uliyatni his qiladi. O'zaro bog'liq maqsad sari birgalikda intilish talabalarda jamoaviy liderlik sifatlarini ham rivojlantiradi.

Turli nuqtai nazarlarni hurmat qilish va baholamaslik ham ijtimoiy hamkorlik madaniyatining belgilaridan biridir. Misol uchun, interfaol mashg'ulotlarda har qanday fikr bildirilar ekan, dastlab guruhda hech kim tanqid qilmaslik tamoyili joriy etilsa, talabalar bemalol o'z g'oyalarini taklif qilishadi. Bu esa guruhda fikrlarning erkin shakllanishiga va ijodkorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy nuqtai nazardan kollaborativ madaniyat – bu guruhda o'zaro ishonch, hurmat, tenglik va hamjihatlik me'yorlarining qaror topganligi bo'lib, u talabalarning keyingi jamoaviy faoliyatlarida ham namoyon bo'ladi. Bunday madaniyatga ega talaba kelgusida hamkasblari bilan ham samarali ijodiy jamoa tuzib ishlay oladi, chunki oliy ta'lim davridayoq unda guruh bilan muloqot va hamkorlik ko'nikmalari shakllangan bo'ladi.

Psixologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, hamkorlikda o'qish talabalarda mantiqiy fikrlash, muammo yechish va kreativ tafakkurni rivojlantiradi. Masalan, birgalikda muammoni tahlil qilish jarayonida talabalar turli yechim yo'llarini topishga intiladi, shu bilan ijodiy fikrlash namoyon bo'ladi[3. 2022:B.15]. Guruhiy munozaralar talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmasini oshiradi – ular turli qarashlarni solishtirib, o'z dalillarini mustahkamlashni o'rganadilar. Shuningdek, aqliy hujum (brainstorm) kabi usullar jamoada hech bir tanqidsiz erkin g'oyalar yaratilishini ta'minlab, talabalarning ijodkorligi va o'zgalarning fikrini diqqat bilan tinglash ko'nikmasini mustahkamlaydi. Bunday psixologik jarayonlar natijasida talabalarda nafaqat bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, balki jamoa bilan ishlashga ijobiy emosional munosabat ham shakllanadi.

Shu o'rinda, hamkorlikdagi o'qishning shaxs motivatsiyasiga ijobiy ta'sirini alohida ta'kidlash joiz. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, jamoaviy ta'limda talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va o'zlashtirishi individual o'qishga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'ladi[4. 2021:B.151]. O'zaro rag'bat va birgalikda muvaffaqiyatga erishish hissi talabalarga kuchli motivatsion turtki beradi. Biroq, psixologik jarayonda individual xususiyatlarni ham inobatga olish lozim: ba'zi tortinchoq yoki introvert talabalar uchun guruhda faol bo'lish dastlab qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu sabab, tajribali o'qituvchilar guruh ishining fleksibil (moslashuvchan) tuzilmasini tanlaydi – vazifalarni bajarishda har bir talabaning qobiliyati va uslubiga mos sharoit yaratishga harakat qiladi. Masalan, kichik guruhlariga bo'lishda talabalar aralash qobiliyat va xarakterlarga ega bo'lishi, rollarni almashtirib turish hamda zarur bo'lsa individual ko'rsatmalar berilishi maqsadga muvofiq.

Psixologik nuqtai nazardan kollaborativ madaniyat - bu shaxsning boshqa insonlar bilan hamkorlikda o'qish davomida orttiradigan muomala ko'nikmalari, empatiya, liderlik va o'ziga ishonch kabi fazilatlarini qamrab oladi. Birgalikda ishlash jarayonida talabalarda sabr-toqat, stressga barqarorlik va moslashuvchanlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanadi. Masalan, guruhda nizoli vaziyat ketsa, talabalar muammoni murosaga kelib hal qilishni o'rganadi – bu ularning konfliktni boshqarish ko'nikmasini rivojlantiradi. Shu bois, kollaborativ madaniyatga ega bo'lgan bitiruvchi kelgusida murakkab mehnat jamoalarida samarali ishlash salohiyatiga ega bo'ladi.

Kollaborativ madaniyat tushunchasi zamonaviy ta'limning muhim mezonlaridan biri bo'lib, u talabalarining o'zaro hamkorligi, jamoaviy qaror qabul qilishi va bir-birini qo'llab-quvvatlash madaniyatini anglatadi. Ushbu maqolada pedagogik, ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan mazkur madaniyatning shakllanishi, uning ta'lim samaradorligiga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Mualliflar fikriga ko'ra, jamoaviy muhitda talabalarda mustaqil fikrlash, empatiya, liderlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlar rivojlanadi. Ayniqsa, L.S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga asoslanib, hamkorlik orqali o'quvchilarning bilim salohiyati oshiriladi. Psixologik jihatdan qaralganda, guruhda ishlash orqali talabalar stressga bardoshlilik, murosaga kelish va ijodkorlikni o'zlashtiradi. Shu bois, pedagogik jarayonda interfaol metodlar, kichik guruhli mashg'ulotlar va tengdoshlar o'rtasidagi hamkorlik faoliyatlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Kollaborativ madaniyat nafaqat ta'limdagi muvaffaqiyat omili, balki jamiyatda faol va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishda ham muhim vositadir. Shu bois, bu madaniyatni rivojlantirish bugungi o'zgaruvchan ta'lim tizimida ustuvor vazifadir.

References:

Используемая Литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aslanova N. X. O'quvchilarda kollaborativ ko'nikmalarni shakllantirish muammolari// Social Sciences & Humanities jurnali, 2024. -B. 133-136
2. Azizxo'ayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O'quv qo'llanma – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006. -B. 14.
3. Billings E., Walqui A. WestEdThe Zone of Proximal Development: An Affirmative Perspective in Teaching ELLs/MLLs// https://www.nysed.gov/sites/default/files/programs/bilingual-ed/zone_proximal_development.pdf
4. Comparison Of Individual and Collaborative Learning in Offline Teaching. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 3, 2021. 151-156. <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/515>
5. Turemuratova A., Tursunboyeva G., Yusupova K., Sultanova Z. Analysis of pedagogical and psychological mechanisms of developing collaborative skills of students based on a multi-vector approach. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 3(14), 2024. -C.46-49.